



## OCHIQ VA HIMOYALANGAN MAYDONLARDA SABZAVOT YETISHTIRISHNING ILG'OR TEXNOLOGIYASI

*Q.Davronov – FarDU, q.x.f.d. (DSc)*

*M.Haydarov – FarDU, b.f.f.d. (PhD)*

*M.Haydarova – FarDU, o'qituvchi.*

*A.Saminov – FarDU, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya.** Maqolada tez o'zgaruvchan iqlim sharoitiga ega bo'lgan aholi tomorqa xo'saliklarida va himoyalangan joylarda sabzavot ekinlari yetishtirishning ilg'or texnologiyasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** iqlim, tomorqa, ekish, sabzavot, yetishtirish, himoyalangan.

**Kirish.** Dunyo miqyosida qolaversa mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadsida, oziq-ovqat mahsulotlarini yilning istalgan vaqtida iste'molchilarga yetkazish uchun ko'plab zamonaviy ilmiy-amaliy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Malumki har bir urug'ni ekishga tayyorlashda urug'lik materiallarining sifati yuqori bo'lishi (namligi, tozaligi, unuvchanligi va boshqalar) va urug'lik materiallarini davlat standartlari asosida tanlash va albatta, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga asoslanishi lozim.

Bu borada, hudud tuproqlarini har tomonlama o'rghanish muhim hisoblanadi. Sug'oriladigan tuproqlarni kimyoviy, agrokimyoviy, fizik va boshqa xossalari, hamda ularda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirib, yuqori va sifatli hosil olish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

**Tatqiqot obyekti va usullari.** Ekishdan oldin urug'lik materiallarga ishlov berish hosilning yo'qotilishini 50% yoki undan ko'proq qisqartirishi mumkin. Kasalliklar natijasida hosilning yo'qotilishi 15-35% ni, shu jumladan 60% urug'lik yetishmasligi sabab boladi. Fungitsidlar bilan davolash potentsial yo'qotishlarni 50-55% ga kamaytirishi mumkin. Shuning uchun urug'lik materiallarni himoyalangan va ochiq maydonlarda yetishtirishdan qat'iy nazar ekishdan oldin urug'larni parvarish qilish muhim sanaladi.

**Tatqiqot natijalari.** Sabzavotlar tarkibida odam organizmi uchun zarur bo'lgan uglevodlar, oqsillar, moylar, mineral tuzlar, fermentlar hamda har-xil vitaminlar mavjud. Odam organizmining vitaminlarga bo'lgan talabiga asosan



sabzavotlar ta'minlaydi. Aholini yilning barcha fasllarida uzlusiz sabzavot ekinlari bilan ta'minlashda aholi tomorqasi va himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirish katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda aholi tomorqa xo'jaliklari va himoyalangan joylarda yiliga 46-50 ming tonnadan ziyod sabzavot ekinlari yetishtiriladi, har bir kvadrat metr hisobiga 14-15 kg, aholi jon boshiga 3,8-5,0 kg ni tashkil etadi.

Bu borada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarimizning natijalariga asosan sabzavot yetishtirishni aholi jon boshiga 9,0-10,0 kg ga yetkazishga qaratilgan yangi texnologiyalar yaratilmoqda.

Noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va b.) himoyalangan joylarda amalga oshiriladi. Ular asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va h. k. bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi.

Himoya qilingan joyda pomidor, bodring bilan bir qatorda ko'katlar - rediska, ko'k piyoz, karam, shirin qalampir, poliz mahsulotlari va boshqalar ham yetishtiriladi. Ular kamroq maydonga ekiladi va O'zbekistonda asosan ustiga plynka yopiladigan issiqxonalarda va vaqtincha plynka yopib o'stiriladi.

Ko'katlarni har qanday joyda ham urug'ini sepib yetishtirish mumkin, lekin ustiga plynka yopiladigan isitiladigan va isitilmaydigan issiqxonalarda o'stirish maqsadga muvofiqdir. Bu ko'katlarni qishki issiqxonalardagi pomidor va bodring orasiga ham ekish mumkin. Lekin, asosiy ekinlar bilan ko'katlarning haroratga ehtiyoji har xil bo'lganligi uchun ko'katlardan yuqori hosil olish qiyin. Ularning hammasi haroratga juda talabchan emas. 12-18 °C ular uchun yetarli. O'zbekistonda himoya qilingan joyda ko'kat o'simliklardan Shavit, kashnich va petrushka yetishtiriladi. Shavitning Uzbekskiy-243, Orom va Andijon mahalliy navlari ekiladi.

Qishki issiqxonalarda Shavit, bodring, pomidor orasiga sepiladi, Shuningdek, bahorgi issiqxonalarda yorug' joyga qo'yilgan yashiklarga, parniklarda o'simliklar orasiga va kamdan-kam sof holda ekiladi. Kuz-qishda ko'katlar 40-45 kunda, erta bahordagisi 30-35 kunda yetiladi. Ekish muddatlari mahsulot qachon yetishtirilishi zarurligiga qarab belgilanadi. Shavit tez yetilgani uchun issiqxonalarda bir necha marta ekiladi. Isitilmaydigan bahorgi issiqxonalarda vaqtincha ustini yopib, kuzgi davrda Shavit oktyabrning o'rtalaridan noyabrning oxirigacha, erta bahorgida fevral boshidan martning o'rtalarigacha o'stiriladi.

Parniklarga sof holda ekilganda urug'i har bir ramaga 40-50 g hisobidan sepiladi. Keyin iliq suv bilan sug'oriladi; ustiga 0,5 sm qalinlikda chirindi sepib,



yengilgina zichlanadi (bosiladi). Urug‘ sepilgan yashiklarni ustma-ust taxlab, 3-5 kun harorati 20-25°C li sharoitda saqlash mumkin. Maysalashi bilan (5% dan ko‘proq) yashiklar bir qator qilib joylashtiriladi. Shivot parvarish qilishda zarur (15-18°C) harorat, tuproq namligi (70-80%) va havoning nisbiy namligida (60-70%) optimal saqlanadi. Zarurat bo‘lsa o‘toq qilinadi. O‘suv davrida 2-3 marta sug‘oriladi va azotli o‘g‘itlar bilan (1 1 suvgaga 3-4 g ammiakli selitra hisobidan) oziqlantiriladi. Zichlashtiruvchi ekin sifatida ekilsa, hosili 2 marta kam bo‘ladi. Kashnich ham tez yetilishi jihatidan Shivotga yaqin. Shuning uchun u ham Shivot kabi ekib o‘stiriladi. Shivot ekiladigan muddatlarda eqilib, o‘sha muddatlarda yig‘ib olinadi. Urug‘i yoppasiga sepiladi va tor qatorlab ekiladi. U ham asosiy ekin sifatida yoki zichlashtiruvchi sifatida ekiladi.

Kashnich urug‘i yaxshi unadi, u bir kun ivitiladi. Urug‘ ekish normasi Shivotnikidan kam; sof o‘zi ekilganda 12-18 g/m<sup>2</sup>. Issiqxonalarga Urojaynaya, Saxarnaya, Nilufar, Bordovikovskaya navlar urug‘i ekiladi. Sentyabrda keng qatorlab, ko‘p qatorlab (qator oralarini 10-15 sm dan qilib), orasida yo‘l qoldirib ekiladi. Urug‘ ekish normasi 1,5-2 g/m<sup>2</sup>. Yaganalangandan keyin qatordagi o‘simliklar orasi 2-3 sm bo‘ladi. Petrushka uchun yetarli issiqlik (15-17°C), havoning nisbiy namligi (60-70%) va tuproqning qulay namligi (dala nam sig‘imiga nisbatan 60-70%) bo‘lishi kerak. U ko‘p suv berib sug‘oriladi (lekin tez-tez emas aks holda chirib ketadi). Dekabr-yanvarda yorug‘lik kamayganda namlik ko‘pligidan qiynaladi. Petrushka bir necha marta o‘riladi.

O‘rimlar orasi kuz-qishda 50-60 kun, erta bahorda 30-40 kun. Butun mavsumda (sentyabrdan may oygacha) 5-7 marta o‘rish mumkin. Bunda 8-10 kg/m<sup>2</sup> dan petrushka o‘rib olinadi.

Ko‘chat qilib petrushka yetishtirishda ildizmevasi qator oralarini 6-8 sm va tuplari orasini 7-8 sm dan qilib, 8-10 sm chuqurlikda ekiladi. O‘rtacha yirik ildizmevalari tanlanib, 5-6 kg/m<sup>2</sup> normada ekiladi. Ildiz bo‘g‘zi ochiq qoldiriladi, Shunda barglari yaxshi o‘sib chiqadi. 35-40 kun o‘sadi. Bu davrda harorat 19-20°C saqlanadi. Keyin yoppasiga o‘riladi, hosildorligi 6-7 kg/m<sup>2</sup> bo‘ladi. O‘zbekistonda faqat bargli selderey ekiladi. U ildizmevasidan yetishtiriladi. Buning uchun ildizmevalarini 60-70 g dan qilib tayyorlab, qator oralarini 8-10 sm, tuplar orasini 3-4 sm dan qilib ekiladi. 1 m<sup>2</sup> maydonga 120-140 ta selderey ko‘chatini ekib, ustiga (ildiz bo‘g‘zigacha) tuproq bostiriladi 12-18°C issiqda 35-40 kun o‘stiriladi.

Ko‘k piyozni O‘zbekistonda yil bo‘yi yetishtirish mumkin. Himoya qilingan joyda urug‘dan ekilmaydi. Ba’zan no‘sh piyoz ekiladi. Bunda 4 sm yirikdagи piyozboshlar 10-12 kg/m<sup>2</sup> hisobidan zinch qilib ekiladi. Ustiga pylonka yopilgan



issiqxonalarda va parniklarda piyoz birinchi davrda yetishtiriladi. Qishki issiqxonalarda 2-3 davrda yetishtiriladi yoki zichlovchi ekin sifatida ekiladi.

Bargli salatni yetishtirayotganda dastlabki harorat  $12-14^{\circ}\text{C}$  bo‘lishi kerak. Birinchi chinbargni chiqargach,  $16-18^{\circ}\text{C}$  ga ko‘tariladi. Salat uchun havo namligi 80% dan ortiq bo‘lmagani ma’qul. Salat ehtiyyot bo‘lib sug‘oriladi. Sug‘orish kam, biroq mo‘l qilib o‘tkaziladi, ortiqcha nam chiqarib yuboriladi. Salat bir-ikki marta ammiakli selitra (40-50 g 10 l suvga) bilan oziqlantiriladi. Bahorgi piyozni O‘zbekistonda ochiq usulda yil davomida yetishtirish mumkin, shu sababli himoya qilingan joyga piyoz urug‘i ekilmaydi. Ayrim holda piyozdan barrasini olish uchun yetishtiriladi. Ko‘kpiyoz olish uchun diametri 4 sm li piyozboshni bir-biriga zichlab  $1 \text{ m}^2$  yerga 10-12 kg hisobida ekiladi. Plyonkali issiqxonada va parnikda ko‘kat uchun mayda piyozboshlar birinchi almashlashda ekiladi. Qishki issiqxonada esa ikki-uch almashlashda ekiladi yoki zichlashtiruvchi ekin sifatida ekiladi. Piyozni ekishdan oldin bo‘yni boshi kesiladi. Bunday kesish piyozning tez o‘sishiga yaxshi sharoit yaratadi va chiqish muddatini qisqartiradi. Ko‘k piyoz  $16-22^{\circ}\text{C}$  haroratda 25-35 kunda yetiladi. Bundan yuqori harorat piyoz barralarini hosil bo‘lishini sekinlashtiradi. O‘stirilayotganda sug‘oriladi va ammiakli selitra (20-30 g 10 l suvga) bilan oziqlantiriladi. Hosil piyoz bo‘yi 30-35 sm ga yetganda yig‘ishtiriladi.  $1 \text{ m}^2$  dan 10-15 kg hosil olinadi.

O‘zbekistonda ayrim hollarda shovul barglari yetishtiriladi. Ekiladigan ildizlar buziladigan eski plantatsiyalardan olib tayyorlanadi. Zich qilib ekiladi,  $1 \text{ m}^2$  yerga 6-8 kg ildiz sarflanadi. Avvaliga haroratni  $10-12^{\circ}\text{C}$  da saqlanadi. So‘ngra  $18-20^{\circ}\text{C}$  gacha ko‘tariladi. Barglari 3-4 marta kesib olinadi.  $1 \text{ m}^2$  yerga 2-4 kg dan hosil to‘g‘ri keladi.

**Xulosa.** O‘zbekistonda himoya qilingan joydagi barcha inshootlarda rediska ko‘proq erta bahorda zichlashtiruvchi ekin sifatida yetishtiriladi. Ko‘kat ekinlarga nisbatan rediska yorug‘likka talabchan va yuqori haroratni hohlamaydi. Shu tufayli, rediska kuzgi-qishki muddatda yetishtirilmaydi. O‘zbekistonda himoya qilingan joyda faqat urug‘dan yetishtiriladi va uning "Saksa", "Krugliy krasniy", "Ertapishar" singari ertapishar, Shuningdek, "Zarya", "Teplichnyi", "Lola" va "Krasniy Velikan" navlari yetishtiriladi. Qishki issiqxonalarda rediskani zichlashtiruvchi ekin sifatida bodring yoki pomidor oralariga ekish mumkin. Asosiy ekinni ekishdan 6-8 kun oldin juyakning ikki tomoniga 4-6 qator qilib lenta shaklida ekiladi. Rediskani ko‘chat yashiklarida yorug‘ yo‘laklarda ham yetishtirish mumkin. Ekish chuqurligi 0,5-2,0 sm bo‘lib, qo‘lda yoki seyalkada  $1 \text{ m}^2$  ga 3-4 g urug‘ sepiladi. Bunda oziq maydoni  $5 \times 5 \text{ sm}$  bo‘ladi. Unib chiqqach, yagana qilinadi. O‘simlikning parvarishiga tavsiya



etilgan haroratni saqlash (quyoshli kunda 16-18<sup>0</sup>C li, bulutli kunda 12-14<sup>0</sup>C), havo namligi (60-65%) va tuproqni oziqlantirish (75-80%) kiradi. Qishki issiqxonada, bundan tashqari, o'simlik kattalashib borgan sari tagiga tuproq sochib turiladi. To'liq o'sib chiqmaguncha sug'orish o'tkazilmaydi, chunki u urug'ning chirishiga sabab bo'ladi. Tuproqning yuqori qatlami qurib qolsa yuzasiga suv sepiladi. Unib chiqqach, avvaliga kamroq, so'ngra tez-tez sug'oriladi.

Rediskani yetishtirish davrida ikki marta oziqlantiriladi. Birinchisi unib chiqqandan so'ng ikki hafta o'tgach beriladi. Bunda go'ng (1:6 nisbatda suv bilan aralashtirilgani) 15 g superfosfat va 10 g kaliy tuzining 10 l eritmasi bilan qo'shib solinadi. Ikkinci o'g'itlash birinchisidan bir haftadan keyin o'tkaziladi. Bunda 40 g ammiakli selitra, 20 g superfosfat, 15 g kaliy tuzi 10 l suvda eritiladi. 1 m<sup>2</sup> maydonga 6-7 l eritma qo'yiladi. Qishda hosil urug' unib chiqqandan so'ng 32-35 kun, erta bahorda 25-28 kun o'tgach yig'ishtiriladi. Ildizmevani saralab, uch-turt marta diametri kamida 2 sm bo'lganda yig'ishtirib olinadi. Hosil 10-12 kun davomida yig'ishtiriladi.

Yig'ishtirilayotganda barglari bilan sug'urib olinadi va 10 donadan bog'lam qilib boylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'riyev X.S. Sabzavot ekinlari selektsiyasi va urug'chiligi. T. "Mehnat". 1999.
2. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.
3. Хайдаров М. М., Турдалиев А. Т. Саминов ААУ Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах //Тенденции развития науки и образования. – 2021. – №. 80-3. – С. 45-47.
4. Mukhtarovna N. R., Alimardonugli S. A., Botiraliyevich U. N. Features of treatment of winter wheat seeds by different processors //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
5. Raximov M.A., Yuldasheva Sh., Xasanova Sh. Bog' zararkunandalariga qarshi kurashda entomofaglarning roli. "Farg'ona vodiysi: tabiat-aholisi-xo'jaligi yangi tadqiqotlarda ( geoekologik jihatlari). Ilmiy – amaliy konferentsiya materiallari. Farg'ona, 2015, 228-229-230 bet.



6. Anvarjonovich D. Q., O'g'li S. A. A., O'g'li X. The importance of fungicides and stimulants in preparing seed grains //Asian journal of multidimensional research. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 415-419.
7. Saminovich M. B., Gulomatovna X. N., O'G'Li S. A. A. Petrushka o 'simligini yetishtirish va undan oqilona foydalanish //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 259-262.
8. O'G'Li S. A. A., Qizi N. D. K. Zanjabil o 'simligini ochiq maydonlarda yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 26-30.
9. Raximov M., Saminov A. Aholi tomorqa xo'jaliklarida va himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirishning jadal texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 231-236.
10. Alimardon o'g'li S. A., Qizi M. D. U., Qizi N. S. M. Dorivor steviya o 'simligini yetishtirish agrotexnologiyasi va sohalarda foydalanish istiqbollari //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1194-1198.
11. Komilov, R., Haydarov, M., & Usmonov, A. (2022). FЎЗА НАВЛАРИНИНГ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШ ЎТКАЗИШ МУДДАТЛАРИНИ ЧИГИТ МОЙДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(D6), 371-375.
12. Mashrabovich, H. M., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). MELISSA OFFICIALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(18), 18-20.
13. Давронов, Қ., & Тўхташев, Ф. (2022). ГЎЗАНИ РИВОЖЛАНИШ ДАВРЛАРИДА БАРГИДАН ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ БАРГ СОНИ, ОФИРЛИГИ ВА ЮЗАСИГА ТАЪСИРИ. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 316-319.
14. Давронов, Қ. (2022). СУЮҚ АЗОТЛИ ЎФИТЛАР МЕЪЁРЛАРИ ВА СУСПЕНЗИЯ ҚЎЛЛАШНИНГ ПАХТА ҲОСИЛИГА ТАЪСИРИ. *Models and methods in modern science*, 1(18), 29-31.
15. Isagaliev, M., Abakumov, E., Turdaliev, A., Obidov, M., Khaydarov, M., Abdulkhakimova, K., ... & Musaev, I. (2022). Capparis spinosa L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan. *Plants*, 11(13), 1628.
16. Haydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). Lamiaceae oila vakillarining biz bilgan va bilmagan dorivorlik xususiyatlari. *Science and innovation*, 1(D7), 89-94.



17. Хайдаров, М. М. (2022, November). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ЭФИР МОЙИГА БОЙ БҮЛГАН БАЗИ ТУРЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 16-20).
18. Davronov, Q. A. (2022, December). ORGANIC FERTILIZERS AND THEIR USAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 94-96).
19. Davronov, Q. A., Turdimatova, Z. I., & Yuldasheva, M. U. (2023). RESEARCH AND ANALYSIS OF STORAGE WAREHOUSES OF AGRICULTURAL PRODUCTS. *Conferencea*, 102-104.
20. Anvarjonovich D. Q., Ogli X. M. B. The effect of grain moisture on grain germination during grain storage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 418-421.
21. Давронов, Қ. (2022). СУЮҚ АЗОТЛИ ЎҒИТЛАР МЕЪЁРЛАРИ ВА СУСПЕНЗИЯ ҚЎЛЛАШНИНГ ПАХТА ҲОСИЛИГА ТАЪСИРИ. *Models and methods in modern science*, 1(18), 29-31.
22. Haydarov, M., Sayramov, B., Rahmonova, O., & Eshnorova, J. (2022). TARKIBIDA MONOSIKLIK MONOTERPENLAR BO ‘LGAN EFIR MOYLAR VA DORIVOR O ‘SIMLIKLAR. *Science and innovation*, 1(A7), 337-343.
23. Давронов, Қ., & Тўхташев, Ф. (2022). ФЎЗАНИ РИВОЖЛАНИШ ДАВРЛАРИДА БАРГИДАН ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ БАРГ СОНИ, ОФИРЛИГИ ВА ЮЗАСИГА ТАЪСИРИ. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 316-319.
24. Davronov, Q., & Umarqulova, B. (2022). INFLUENCE OF THE ANATOMICAL STRUCTURE OF THE COTTON STEM ON THE SHEDDING OF BUDS.
25. Давронов, К. А. (2018). Эффективность применения биоудобрения "Биоэнергия" при возделывании хлопчатника. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 180-182.
26. Tukhtashev, F. E., & Davronov, Q. A. (2021). Effect of Liquid Nitrogen Fertilizers on the Increase of Cotton Yield Elements. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 70-73.
27. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Siddiqova, G., & Sodiqova, M. (2022). DORIVOR VALERIANA O ‘SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNNOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(D8), 26-30.



28. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO ‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(D7), 468-472.
29. Xaydarov, M., & Sayramov, F. (2022). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ТИББИЁТДА ҚЎЛАНИЛИШИ ВА КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. *Science and innovation*, 1(D8), 262-270.
30. Haydarov, M., & Usmonov, A. (2022). DORIVOR VALERIANA OFFICINALIS L. O ‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI VA TARQALISH AREALLARI. *Science and innovation*, 1(D8), 303-308.
31. Анварович, Д. Қ., Камилов, Р. М., & Аскаров, Х. Х. (2021). Эффективность Применения Биоудобрения “Биоэнергия” При Возделивание Хлопчатника. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 2(12), 380-383.
32. Карабаев, И. Т., Каримов, Ш. А., Давронов, К. А., & Ибрагимов, О. О. (2017). Эффективность применения жидкого азото-кальцийного удобрения для предупреждения элементов урожая. *Актуальные проблемы современной науки*, (6), 139-143.
33. Abakumov, E., Yuldashev, G., Mirzayev, U., Isagaliev, M., Sotiboldieva, G., Makhramhujaev, S., ... & Nizamutdinov, T. (2023). The Current State of Irrigated Soils in the Central Fergana Desert under the Effect of Anthropogenic Factors. *Geosciences*, 13(3), 90.
34. Хайдаров, М. М. (2022). МОРФОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE, БОГАТЫХ ЭФИРНЫМ МАСЛОМ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 834-838.
35. Haydarov, M., Mamanazarov, B., Xamroqulov, D., & Nasriddinova, D. (2022). BIOMORPHOLOGY OF VALERIANA OFFICINALIS L. *Science and Innovation*, 1(8), 393-399.
36. Mashrabovich, H. M., & Ogli, O. K. A. I. (2023). MAHALLIY TOPINAMBURNING (Helianthus tuberosus) DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 159-162.